

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA  
O‘QUVCHILARNING EKOLOGIYAGA OID TUSHUNCHALARINI  
KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

*Xoliyarova Xurshida Chori qizi*

*Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani 35-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi  
boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirish, o‘qitishning ilmiy-metodik jarayon mazmuni ko‘lamini kengaytirish va bilimlarni o‘rganish orqali o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirish zaminida ekologik qarashlarni mujassamlashtirish, shu asnoda boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarda ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirish bugungi kunning dolzarb muammosi sifatida e‘tirof etilgan.

**Kalit so‘zlar:** tabiatni sevish, jamiyat, inson, tabiiy fanlar, ekologiya, tafakkur, tushunchalar, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, mashg‘ulot, atrof-muhit, fanlararo aloqadorlik, muammo, tushuncha, madaniyat, boshlang‘ich sinflar, yondashuv, o‘quvchi, estetik hissiyot, takomillashtirish, ko‘rgazmalilik, kreativ, shakllantirish.

Bugungi kunda, ekologik tarbiya, ekologik tafakkur, ekologik madaniyat masalalariga katta e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ekologik ta‘lim-tarbiya muntazam takomillashtirilmoqda. Ya‘ni darsdan tashqari vaqtlarda o‘quvchilarni tabiat qo‘yniga, tabiat muzeylariga sayohatga olib chiqish, suhbatlar, ertaliklar o‘tkazish jarayonida ekologik ta‘lim-tarbiya elementlarinig shakllantirilishi fikrimizni asoslaydi. Qolaversa, ekologik ta‘lim-tarbiya berish maqsadida yangi avlod darsliklaridan kreativ mazmundagi ekologik bilimlarning o‘rin olishi bu, albatta o‘quvchilarning ekologik bilim saviyasini oshishiga xizmat qiladi

[6]. Ta'kidlash joizki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga "Tabiiy fanlar"ni o'qish jarayonida asosiy ekologik tushunchalarga ega bo'lib, ular tabiatni sevishga, o'simliklarni ardoqlashga, hayvonlarni parvarish qilishga o'rganadilar. Shuningdek, dars jarayonida o'quvchilarda ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirish o'qituvchi hikoyasi hamda darsliklarda o'z ifodasini topgan mavzular orqali tushuntirilib boriladi.

Umuman, o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berishga doir mavzular "Tabiiy fanlar" darslariga kiritilgan. Shunga qo'shimcha tarzda aytish joizki, bu darsliklarda esa ekologik kreativlikni singdiruvchi mavzular va topshiriqlar kiritilsa, hamda milliy marosimlarimizdan foydalanib o'quvchilar ongiga yetkazilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bunda milliy marosimlarda aks etgan (hikoya, rivoyat, topishmoq, hadislarda, hikmatlarda maqollar) ekologik ta'lim-tarbiyaga oid tushunchalar keltirilsa, o'quvchilarning bilim saviyasi yanada yuqori bo'ladi [3]. "Tabiiy fanlar" o'quvchilarning tafakkur, kuch va qobiliyatlarining o'sishiga, ko'rganlarini kuzata bilish va tahlil qilishlariga, to'g'ri, mantiqiy asoslangan xulosa va yakunlar yasashlariga har tomonlama yordam berishi bilan bir qatorda darslarda o'quvchilar umumtalim munosabatida bir qancha qimmatli ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni turli manbalardan (atrof-muhit, tajriba, kitob, turli ko'rsatmalar) bilim ola bilishni, ba'zi eng oddiy asboblardan (kompas, termometr, flyugur,...) dan foydalana bilishni, bazi maket, mulyaj, gerbariylarni tayyorlashni, o'z kuzatishlarini yozma va og'zaki qayd qila bilish hamda umumlashtirishi lozim bo'ladi [9]. "Tabiiy fanlar" atrof-muhitni muhofaza qilishdagi boshlang'ich bilim va ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi deya bejizga aytilmadi. Chunki bu darslarda o'quvchilarda tabiatni o'rganish, undan to'g'ri foydalanish, uni o'zgartirish va qo'riqlash kabi tushunchalarni hosil qilish kerak. O'quvchilarda mustaqil kuzatishlar olib borish, ixtiyoriy diqqat e'tibor va ishtiyoqning o'sishi uchun birinchidan, ularni tabiatdagi go'zallikni ko'ra bilishga o'rgatish, ikkinchidan, kuzatishlar uchun malum maqsadlarni qo'yish, kuzatishlar olib borish rejasini belgilash hamda o'tkazilgan ishning u yoki bu o'quv vazifasini xal qilishdagi ahamiyatini ongiga yetkazish lozim [7]. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni tadbqiq etishning har bir

bosqichida tabiiy-ilmiy bilimlarni jadal o'rgatishga xizmat qiladigan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tanlash o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Kreativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni takomillashtirishning aniq shakllarini tanlash talab etiladi [1]. Bunday shakllar sirasiga darsning an'anaviy va noan'anaviy turlari, sinfdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonlarini kiritish mumkin. Shu bilan bir qatorda, turli bayramlar: "Mehrjon", "Ziravorlar festivali", "Asal bayrami", "Qushlar bayrami", "Qushlar qanotli do'stlarimiz", "Gullar bayrami" kabi tadbirlar ham o'quvchilarning tabiat va uni asrashga oid ijodiy (kreativlik) bilim va amaliy tajribalarini boyitishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, ushbu tadbirlar o'quvchilarda mehnatsevarlik, tabiatni e'zozlash, ekologiyani asrab-avaylash, tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanish va ularni qadrlash, ularning inson salomatligini saqlashdagi ahamiyatini anglashga oid bilimlarini boyitadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvga asoslangan holda, o'quvchilarga tabiiy bilimlarni o'rgatish maqsadida dastur mavzulari bilan bog'liq holda alohida o'quv materiallari, savol-topshiriqlar, illyustrasiyalar, audio-video, multimedia vositalarini ham tanlashlari lozim. O'quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini mustahkamlash maqsadida o'qituvchilar darsliklarga qo'shimcha tarzda alohida mashqlar tizimini ham tanlab o'quv jarayoniga tatbiq etishlari kerak. Bunda o'quv topshiriqlarining sermahsulligi, atrof-muhitdagi voqelik bilan aloqadorligi, ko'rgazmaliligi, yorqinligi va rang-barangligi ham muhim ahamiyatga ega. Yana bir muhim tomoni, boshlang'ich sinf o'quvchilariga taqdim etilgan tabiiy-ilmiy bilimlarning samaradorligini aniqlashdan iborat bo'ladi.

Bunda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni nazorat qilish, aniqlash va shakllanganlik darajasini baholashdan iborat bo'lgan pedagogik faoliyat amalga oshiriladi [5]. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy bilimlarni o'rganish asosida hosil bo'lgan tayanch va fanga oid kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini aniqlash va tashxislashda test topshiriqlari hamda amaliy mashqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Binobarin, o'qituvchi darsga tayyorlanar ekan, avvalo, uning maqsadlarini belgilaydi. Dars maqsadlariga muvofiq dars mavzusi,

mazmuni, shakl, metod va vositalarini aniq tasvirlaydi. Shuningdek, dars sifati va samaradorligini oshirish maqsadida darslikda kiritilmagan o'quv materiallari, dars mazmuniga muvofiq keluvchi she'r, badiiy parchalar, xalq maqollari, matallari, topishmoqlari va o'quvchilarda qiziqish, jonlanish, his-hayajon uyg'otuvchi boshqa qiziqarli malumotlarni kiritish lozim bo'ladi [4]. Tabiat hodisalarini kuzatish uchun ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ham og'zaki va yozma nutqni o'stirish uchun boy hamda qiziqarli ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, o'quvchilar nafaqat ona tili va o'qish savodxonligi darslarida emas, balki unga oid sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ham tanishadigan badiiy asarlarda keltirilgan tabiat hodisalari bilan uzviy bog'lanishi kerak [2]. O'quvchilarning "Tabiiy fanlar" bo'yicha kuzatish va amaliy ishlari matematika darslari bilan ham bog'liq. Unda yerning shakli va uning sutka hamda yillik aylanishi bilan tanishish o'quvchilarga kun va tunning, yil fasllarining almashinuv qonuniyatlari haqida o'z yoshlariga muvofiq dastlabki tushunchalarni berish bilan bir qatorda, ularga Vatanimiz tabiatining xilma-xilligi, tabiat komponentlarining janubdan shimolga ma'lum izchillikda taqsimlanish sabablarini tushuntirishlariga imkon beradi.

O'quvchilar mahalliy o'simlik va hayvonot dunyosining ba'zi turlari bilan tabiatda, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish korxonasiga qilingan sayohatlarda o'quv tajriba bog'ida tanishadilar. Mazkur jarayonda mavzu bo'yicha darsda tabiatning inson hayoti uchun ahamiyati ta'kidlab o'tiladi, kishilar mehnati bilan tabiiy sharoitlar o'rtasidagi o'zaro aloqa ochib beriladi. O'quvchilar sayohatlar, tajriba va kuzatishlar jarayonidan olgan taassurotlaridan tabiiy fanlar, ona tili va o'qish savodxonligi, matematika, texnologiya, tasviriy sanat va musiqa darslarida foydalanadilar. Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda ekologiyaga oid tushunchalarni kreativ yondashuv asosida takomillashtirishni fanlararo aloqadorlik mazmunida ham amalga oshirish o'quvchilarda atrof-muhit haqidagi ma'lumotlarni yaxshiroq egallashga yordam beradi.

Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativlik faoliyatini takomillashtirishda tarbiya darslarining ham o'rni beqiyosdir. Shuni hisobga olib tarbiya darsliklarida ekologik ta'lim-tarbiya beruvchi mavzular qisman bo'lsa-da, o'z aksini topgan. Ta'kidlash o'rinliki, bolalik davri inson

hayotining ilk betashvish bosqichi hisoblanadi. Bolalar atrof-muhit va unda ro‘y berayotgan hodisalarni anglashga hissiy yondashadilar. Buning natijasida ularda, asta-sekin hodisalar mohiyatini ifodalovchi shaxsiy qarash, sifat va mustaqil munosabat shakllanib, ularning ruhiyatida saqlanib qoladi. Tabiatning kuchli tarbiyaviy salohiyatini hisobga olib, oilaviy hamkorlikda tabiat qo‘yniga sayohat uyushtirish o‘z navbatida o‘quvchilarning kuzatuvchanligini, o‘rab turgan tabiiy muhitdan estetik zavqlanishini, hamdardlik tuyg‘usini, tabiat qo‘ynida o‘zlarini qanday tutish qoidalari va odobini shakllantirishga, ularning sog‘lom, ma‘naviy va intellektual rivojlanishiga yordam beradi [8]. Ushbu jarayonda ota-onasining atrof-muhitga xatti - harakati bolada qanday munosabat uyg‘otadi? Axlal va chiqindilarni duch kelgan yerlarga to‘kish, uni yondirish, ayniqsa kuzgi xazonrezgi davrda xazonlarni yoqib havoni bulg‘aydigan noxush holatlarga beixtiyor ko‘zimiz tushadi. Eng achinarlisi, biz ba‘zan bu jarayonga bolalarni ham tortmoqdamiz, shu kabi ishlarni ularga buyurib oxir-oqibatda ularni bunday salbiy harakatlarning bevosita ishtirokchisiga ham aylantiramiz. O‘z navbatida esa bolalar kattalar harakatidan, munosabatidan o‘rnak oladilar. O‘quvchilarning atrof-muhitga bo‘lgan nojo‘ya munosabatiga ota-onalar munosabat bildirishlari va buning salbiy oqibatini tushuntirib, tabiiy muhit tozaligi, havoning musaffoligi, avvalambor, bizning salomatligimiz, hayotimiz barqarorligini ta‘minlashini astoydil uqtirishlari lozim. “Toza muhit bu sog‘lom hayot muhiti” qoidasini oilaning turmush tarzi va dunyoqarashi, kundalik zaruriyati amaliy ko‘nikmasi va hayotiy ehtiyojiga aylantirish zarur. Bolada sog‘lom turmush tarzining ilk qoidalarini shakllantirishda ota-onalar atrof-muhitni muhofaza qilish, uning tozaligini saqlash, suv, havo va tuproqni ifloslantirmaslik, ulardan tejamkorlik bilan foydalanish har birimizning qonuniy ham insoniy burchimiz ekanligini hayotiy misollarga tayanib astoydil uqtirishlari lozim.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar jonli va jonsiz tabiat to‘g‘risida dastlabki bilimlarga ega bo‘lish bilan bir qatorda ularni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga, shaxs va tabiat mustaqil qadriyat ekanligiga, insonning tabiatdagi ahamiyati va o‘rnini ularning ongiga singdirishga, suv, tuproq va havoni toza saqlash, atrof-muhitning go‘zalligini anglashga qaratilgan boshlang‘ich fazilatlar shakllantiriladi. Boshlang‘ich

sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni kreativ yondashuv asosida takomillashtirishda doimiy ravishda tabiiy fanlar, ona tili va o'qish savodxonligi matematika, texnologiya va tarbiya fanlarini o'qitish orqali o'quvchilarga atrof-muhit, o'simlik, hayvonlar haqida ma'lumot beriladi hamda tozalik va ozodalikka rioya qilish tabiatdagi barcha narsalarni asrab-avaylash singdirilib boriladi [10]. O'quvchilarga dars jarayonida ekologik ta'lim-tarbiya berish ularning ma'naviy-axloqiy jihatidan kamolotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu darslarda ekologik ta'lim-tarbiya berishda o'qituvchilar og'zaki ko'rgazmalilik, izlanuvchanlik, suhbat va zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan metodlardan keng foydalaniladi. Shuningdek, o'quvchi bilimining samarali bo'lishi uchun hamda ma'lum natijalarga erishishda o'qitishning uzviyligi ta'minlanishi zarur. O'quvchining maktabda dars jarayonida olayotgan ta'lim-tarbiyasi ularning shaxs sifatidagi insoniy kamolotida muhim o'rin egallaydi. Hayotga bo'lgan qiziqish ijobiy xislatlar, tabiatni asrab-avaylash, har bir narsaga muhim ekanligi nazari bilan qarash o'quvchilarda ekologik ta'lim-tarbiya natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, dars jarayonida o'quvchilarning ekologiyaga oid tushunchalarini shakllantirishda turli xalq og'zaki ijod namunalari, she'rlar, qo'shiqlardan ham muntazam foydalanilsa samarali bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Абиркулов Х.И. ва бошқалар. Ижтимоий экология. -Тошкент: “Ўзбекистон”, 2004. -112 б.
2. Банников А.Г.,Вакулин А.А., Рустамов А.К. Основы экологии и охрана окружающей среды: - М.: Колос, 1999. -304 с.
3. Бекназов Р.У.,Новиков Ю.В. Охрана природы: Учебное пособие. - Ташкент: Укитувчи, 1995. -583 с.
4. Зверев И.Д.Захлебний А.К. Охрана природы в школьном курсе биологии. Пособие для учителя. -М., 1987. -130 с.
5. Захлебний А.Н.Школа и проблема охраны природы. - М.: Педагогика, 1981. -184 с.

6. Narbutaev H.B. Improving the knowledge of ecological content in pupils in interdiscipline for teaching biology. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECS) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I7.110 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 07 2022.

7. Норбутаев Х.Б. (2018). Развитие экологического мышления у школьников при изучение учебных материалов по биологии развитие экологической мысли учащихся по обучению биологии. Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по гуманитарным наукам. Подробнее на , 16.

**8. Раченко И.П. Интегрированная педагогика. Част 1. Пятигорск: Изд. Пятигорского государственного лингвистического университета, 1997-С.212.**

9. Eshboeva S.K. The current state of improving the creative approach in the formation of ecological concepts in primary class students. International bulletin of engineering and technology. -UIF = 8.1 | SJIF = 5.71, 2022. -P. 21-28.

10. Eshboeva S.K. Pedagogical fundamentals of creative improvement for ecological concepts in primary class pupils. ACADEMICIA: Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) <https://www.tarj.in> ISSN: 2278-4853 Vol 10, Issue 4, April, 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.699 Country India, Doi number 10.5958/2278-4853.2021.00335.9. -P. 1002-1007.